

ТАБИЙ ЖАРAYONLAR VA ULARNING TABIATDAGI O'RNI

Muqimova Charos

Qarshi shahar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

(kar) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan

17- sonli maktab internati geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada tabiiy jarayonlar va ularning tabiatdagi o'rni, ularning inson va tirik tabiatga ta'sirini o'rgandik va ba'zi misollar bilan tahlil qildik.

Kalit so'zlar: tog' jinslarining nurashi, suv toshqini, havo harorati, namligi, shamollar, yorug'lik.

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziq- ovqat, mineral va yonilg'i xomashyolarini oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yod bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aql-idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogen landshaftlar atrof tabiiy muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan va texnikaning shiddatii taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqo'o qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat eng og'ir, yechimi mushkul muammo. Inson faoliyati ta'sirida qurg'oqchilikning kuchaya borayotganligi, cho'llanish, suv zaxiralari kamayib, tabiiy muhitni ifloslanishi kuchayib, suv, havo va ayniqsa, oziqovqatning tansiqiligi, yer yuzi aholisini to'rtan bir bo'lagida ocharchilik mavjudligi va uni oldini olish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan ekanligi ko'pchilikka ma'lum.

Tabiiy geografik jarayonlar — tabiatda modda va energiya o'zgarishlari hamda umuman, tabiiy geografik majmualarni rivojlanishiga sabab bo'luvchi barcha qodisalar. Bular atmosfera sirkulyatsiyasi, namlikning aylanishi, relyef hosil bo'lishi, nurash, tuproq hosil bo'lishi, o'simlik va hayvonot dunyosining mavsumiy hamda asriy o'zgarishlari, komponentlararo aloqalarda ro'y beruvchi jarayonlardan iborat. Tabiiy geografik jarayonlarni tadqiq etish landshaftlarni dinamik tuzilma sifatida o'rganishga, ularni muhofaza qilish va o'zgartirishning oqilona yo'llarini tanlashga imkon beradi. Geografik majmualararo hamda komponentlararo modda va energiya almashinuvini

aniqlash ayniqsa katta nazariy ahamiyatga ega. Tabiiy geografik jarayonlar vaqt davomida (davriy) va muayyan tartibda (birinketinlik bilan) takrorlanib turadi. Masalan, havo harorati, namligi, shamollar, yorug‘lik kecha- kunduz davomida, turli xil obhavo fasllar davomida, fayellar yil davomida almashinib (takrorlanib) turadi. Shuningdek, tog‘ jinslarining nurashi, suv toshqini va boshqa ham muayyan tartibda takrorlanadi.¹

Masalan, Suv toshqini — daryo, ko‘l yoki dengiz suvi sathining ko‘tarilishi natijasida quruqlikni suv bosishi. Daryo suvi, asosan, havo temperaturasi keskin ko‘tarilib, qor yoki muzliklar qisqa vaqtda ko‘p miqdorda eriganda, qattiq jala quyganda toshadi. Daryo o‘zaniga muz tiqilib qolganda ham toshqin ro‘y beradi. Dengiz sohillari va orollarda zilzila paytida yoki okeanda vulqon otilganda to‘lqin ko‘tarilishi natijasida ham St. vujudga keladi.

Suv toshqinini oldini olish uchun suv omborlari qurilib, ortiqcha suvni unga burib yuboriladi, suv yoqalariga mustahkam to‘g‘on, dambalar quriladi.

Suv toshqini va uning talofatlari; Suv toshqini ham tabiiy ofatlar orasida eng xavfli hisoblanadi. Suv toshqini deb, daryo, ko‘l hovuzlardagi suv sathining keskin ko‘tarilish natijasida ma‘lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi. Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo‘ladi;

Kuchli yomg‘ir yog‘ish oqibatida (jala, sel quyishi):

Qorning surunkali erishi natijasida :

Kuchli shamol esishi natijasida ;

Oqar daryolardagi muzliklarni yig‘ilib, sun‘iy to‘g‘on hosil qilinishi:

Tog‘ jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomg‘ir yog‘ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko‘tarilib, daryo, ko‘llarga sig‘maydi va natijada ekin maydonlarini turar joy massivlarini, yo‘llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bundan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, melliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo‘jaligi ekinlari yo‘q bo‘lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg‘i, oziq ovqatlar, mineral o‘g‘itlar va boshqa muhim mahsulotlar yaroqsiz holga keladi, yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketadi. Shular natijasida juda katta miqdorda moddiy zarar ko‘rilib, insonlarni yaxshi hayot kechirishiga halaqit qilishi mumkin. Suv toshqini turli joylarda, jumladan, O‘zbekistonda ham tez — tez bo‘lib turadi. Masalan, 1992-1995-yillarda ko‘pgina viloyatlarda- Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda juda katta moddiy zarar ko‘rildi. Kuchli yomg‘ir yog‘ishi natijasida, suv toshqini 1993, 1994, 1995, 2000, 2001-yillarda Yevropa davlatlarida ham kuzatilib, bularning oqibatida nafaqat moddiy zarar, balki hisoblab

¹ Афаносьев В. Г. Мир живого: Системность эволюция и управление. М осква, 1986.

bo'lmaydigan ma'naviy zarar- insonlar o'limi yuz berdi. Oqar daryolarda suvlarning sathi muzliklar bilan qoplanishi ham suvning oqimiga qarshi to'siqlar (to'g'onlar) hosil bo'lishi natijasida suv toshqini ro'y berishi mumkin. Bu xildagi toshqin 1992-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Amudaryo oqib o'tadigan uchta tumanda kuzatildi. Natijada muz to'g'onlarni samolyotlardan portlatish bilan eritildi va mintaqani suv bosish xavfi bartaraf etildi. Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborlari, suv energiyasi, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida quriladi. Hozirgi vaqtda MDH davlatlarida suv sig'imi 1 million metr/kub dan ortiq bo'lgan suv omborlari mingtaga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 kilometr/kub ga teng. (shundan 53 ta suv ombori O'zbekiston xududida joylashgandir) bu suv omborlarida 55,5miliard metr/kubdan ortiq suv saqlanib, ular orqali qishloq xo'jaligi suv bilan ta'minlanib, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablar bilan buzilsa atrofida yashovchi atrof-muhitga, insonlarga, dehqonchilikka jiddiy zarar keltiradi. Masalan, Chorvoq suv omborida 2,1 km/kub suv saqlanib, agar u buzilsa 8 metr qalinlikdagi suv Toshkent viloyatining uchta tumanini 46 km/ soat tezlik bilan harakatlanib suv bosish xavfi tug'iladi. Shunga o'xshash katta hajmdagi suv omborlari Jizzax, Sirdaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlariga ham xavf solishi mumkin. Shuning uchun suv saqlaydigan omborlarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdagi ehtiyot choralari ko'rilishi lozim. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir platalar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi lozim.

Gidrotexnik inshootlar quyidagi sabablarga ko'ra buzilishi mumkin. Kushli tabiiy hodisalar oqibatida:

- a) yer silkinishi,
- b) yer surilishi,

v) kuchli sel kelishi,) kuchli yomg'ir suvidan yuvilib ketishi: -Gidrotexnik inshoot jihozlarinig eskirishi va tabiiy parchalanishi oqibatida: -Gidrotexnik inshootlarni loyihalashda va qurishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibatida: - Gidrotexnik inshootlardan noto'g'ri foydalanish va qoidalarini buzilishi oqibatida Umuman suv toshqiniga qarshi qo'llaniladigan omillar quyidagilardan iborat: daryodagi suvning sarflanish darajasini oshirish, suv oqimiga qarshi yerlarni kundalang qilib chuqur haydash, daryo qirg'oqlarini ko'tarishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, suv toshqini xavfi tug'ilganda aholini o'z vaqtida xabardor qilish, fuqarolarni moddiy resurslarini, qishloq xo'jaligi hayvonlarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish eng muhim ishlardan hisoblanadi. Evakuatsiyadan oldin har bir fuqaro o'zi yashab turgan uylarni xavfsiz holatga keltirish ya'ni (gaz, suv, elektr tarmoqlarini o'chirish deraza va eshiklarni mahkamlab bekitishlari lozim) va o'zi bilan kerakli hujjatlarini, pul va taqinchoqlarini kamida uch kunga yetadigan yegulik oziq-

ovqatlar va ichimlik suvlarini olishi zarur. Suv toshqinida qolqan odamlar turli xavfsirashlarga berilmasliklari va suv oqimi bo'yicha past sathli qirg'oq tomon suzishlari (harakatlanishlari) kerak. Suv toshqini paytida ma'lum qism odamlar (qutqaruvchilar) shu falokat hududida qolib, imkoni boricha qilinadigan ishlarni bajarishlari zarur. Aholi suv ichida qolgan oziq ovqatlarni yemasliklari va suv ichmasliklari kerak. Yashash joylarda elektrdan foydalanmasliklari lozim, chunki yong'in chiqishlarga olib kelishi mumkin. Suv toshqini xavfi o'tgandan keyin, fuqarolar o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytib kelgach toshqin oqibatlarini bartaraf etish chora tadbirlarini boshlab yuboradilar. Ular quyidagilardan iborat: -Suv bosgan joylardagi suvni chiqarib tashlash va quritish: -Uylarning yerto'lalaridagi suvlarni chiqarib tashlash: -Toshqin natijasida buzilgan joylarni: maishiy -energetik tarmoqlarni, yo'llarni, ko'priklarni va boshqalarni qayta tiklash. -Qayta tiklab bo'lmaydigan, inshootlarni, uylarni yiqitish va tozalash. — Ekinzorlarni suvdan tozalash. Yuqoridagi tadbirlar fuqarolar muhofazasi shtabi va uning tizimlari boshchiligida, xalq ommasi ishtirokida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Афаносьев В. Г. Мир живого: Системность эволюция и управление. Москва, 1986.
2. Андреев И. П. Происхождении человека. Москва, 1979.
3. Барашенков В. С. Существуют ли границы наука: количественная и качественная неисчерпаемость мира. Москва, 1985.
4. Баан М. Генетическая эволюция человека. Москва, 1987.
5. Герасимов И. Г. Структура научного познания. Москва, 1986.
6. Геренок В. И. Экология, цивилизация, ноосфера. Москва, 1987